

O‘ZBEK VA FRANSUZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA METAFORANING O‘RNI

Elmurodov Shohrux Alijon o‘g‘li

Samarqand viloyati ishtixon tumani 31- umumta’lim taktabinig
fransuz tili fani o‘qituvchisi

E-mail: elmurodovshohrux580@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va fransuz adabiyotshunosligida metaforaning o‘rni, o‘zbek va fransuz yozuvchilarining undan qay tarzda foydalanishi hamda muhabbat asarlarida yozuvchilar tamonidan metaforaning eng oliy namunalarini ishlatganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: metafora, ko‘chirim, ko‘chish, azizim (Bel amie), notre dame de paris.

THE ROLE OF METAPHOR IN UZBEK AND FRENCH LITERARY STUDIES

Abstract: The article talks about the role of metaphor in Uzbek and French literary studies, how Uzbek and French writers use it, and the best examples of metaphor used by writers in love works.

Key words: metaphor, migration, displacement, dear (Bel amie), notre dame de paris.

Biz, hayotimiz davomida juda ko‘p o‘zimiz bilgan yoki bilmagan holda metafora²dan foydalanamiz. Metafora o‘zi nima? U nimaga xizmat qiladi? Metafora

² (yun. metaphora — ko‘chirish, ko‘chim) *ad.* So‘zyokiiboranio‘xshashlikyokio‘xshatishgaasoslanganko‘chmama’nodaishlatish

yunonchadan olingan bo‘lib ko‘chirish, ko‘chim degan manolarni anglatadi va biron bir jonli yoki jonsiz narsani boshqa jonli yoki jonsiz narsaga qiyoslab tariflash tushuniladi.

Masalan, oddiygina qilib aytganda onalarimiz yoshligimizda bizni «qo‘zichog‘im» deya erkalashgan. Albatta, buyerda qo‘zichoq so‘zi qo‘yning bolasi manosini beradi, lekin buyerda o‘sha «qo‘zichoq» so‘zi metafora bo‘lib xizmat qilmoqda va bola uchun muloyimlik va beg‘uborlik hislarini bermoqda. Yoki boshqa bir misolda: yomon xulqi uchun bolalarni «ho‘kizga o‘xshamay ketgin» deya koyiydi buvilarimiz. Bu ham metaforani bir ko‘rinishi.

Men o‘zbek va fransuz yozuvchilarining birqancha asarlarini o‘qib shunitushundimki metafora adabiyotshunoslikda juda katta o‘ringa ega ekan va shu narsa meni diqqatimni shak-shubhasiz jalb qildiki: yozuvchi adiblarning barchasi o‘zasarlarida ayniqsa, ayollarga tarif berishda metaforaning eng oliy va go‘zal namunaridan foydalanishgan.

«O‘tkali ul sarvigulruxsorida

Yo‘qxabar ul sarvi gul ruxsorida

Hajridin bog‘ ichraberuryodima

Qomatidinsarvu, gul -ruxsorida»

Alisher Navoiyning bu to‘rt misrasida metaforadan ajoyib tarzda foydalangan.

Masalan: Gulrux ismli qizni «sarvigul» gaqiyoslagan, qomatini «sarvdaraxti»³gaqiyoslagan. Bu yerda shoir qizning qomatini tik va jozibadorligini birgina daraxt orqali tasvirlayabdi. Yuzini esa odamqaragan vaqtda unga birajib hisni uyg‘otuvchi gulga qiyoslayabdi. Albatta, bu yerda shoirning katta mahoratga egaekanligi bilinib turadi.

Muhabbat asarlarini yozishda juda katta mahoratga ega mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassanni bu yerda aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Chunki u o‘lmas asarlari orqali turli janrlar va adabiy vositalarning qanday yozilishi va ishlatilishi

vashundayma'nodaishlatilganso'zyokiibora;(quloq so'zi-ning dutorningqulog'i, "bosh" so'zining "ko'chaningboshi" birikmasilaridagima'nosimetaforaasosidayuzagakelgan).

³Sarvdaraxtiignabargliarchasifatdaraxtturigakiradivabo'iyegirmabeshmetrgachao'sadi.

xususida ko‘plab asarlarida fikr yuritgan. Yozuvchining «Bel Amie»⁴asaridagi ushbu ajoyib jumлага e’tibor qarating.

«Sa poitrine, trop forte, tendait la soie sombre de sa robe ; et ses lèvres peintes, rouges comme une plaie, lui donnaient quelque chose de bestial, d’ardent, d’outré, mais qui allumait le désir cependant. »

Tarjimasi:Uning bo‘liq siynasi, qora ipak kuylagidan bo‘rtib turar, qon silqib turgan jarohat kabi yoqut lablari shaxvat alangasini purkab, jozibasi bilan o‘ziga rom qilib turardi. Bu yerda qizil rangga bo‘yalgan lab juda mohirona tasvirlanganki kitobsevar kishini o‘ziga jalb qilmaslikni imkoni yo‘q.

Victor Hugoning «Notre Dame de Paris» asarida ham metafora uslubidan juda chiroyli va unumli foydalanilgan bir jumlaning uchratishimiz mumkin:

« Malgré ses grands yeux noirs qui vous ensorcellent » yani qora marjon ko‘zlari sehrlaydi. Bu yerda ko‘z marjonga qiyoslagan

« La demoiselle serait-elle encore pucelle? »bu yerda qizni burgaga qiyoslagan yani erkalab burgacham deyilgan

« Ma dulcinée laissez-moi vous être infidèle » bu yerda « dulcinée » so‘zi mashuqa manosini beradi va oy yuzligim deya tariflangan.

Umuman olganda adabiyot bu ta’riflash va tavsiflash orqali bizga biror ma’lumot yoki xabarni yetkazish uchun xizmat qilarkan u doim inson ko‘ngli uchun yoziladi. Bu o‘rinda metaforaning esa o‘rni judayam katta. Insonga doim nimadur yangi narsani tushuntirish uchun u nimagadir o‘xshash ekanligi haqida aytiladi va o‘sha o‘xshash bo‘lgan narsaning ta’rifi keltiriladi. So‘ngra inson u yangi narsani ko‘rmasa ham yurakdan uning qanday ekanligi his qila oladi.

Xuddi shunday qilib adabiyotda “Metafora” uslubi paydo bo‘lgan bo‘lsa ne ajab. Ayniqsa badiiyat olamida mashhur bo‘lgan o‘zbek hamda fransuz adabiyotida uning o‘zgacha o‘rni bor. Va insoniyat bor ekan, bu hech qachon yo‘qolmaydi

⁴Fr. Azizim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbek adabiyoti, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2019-yil.
ISBN 978-9943-5551-1-2
2. Le roman de Gi De Mopassan “Bel amie” publié en 1885.
3. L’oeuvre de Vector Hugo “Notre dame de paris” publié en 1831
4. “Bolaning ko‘ngli poshsho” hikoya Oybek.
5. Наваждения: к истории «русской идеи» во французской литературе XX в. М.:
Наука, 2005.-236 с
6. Французская литература 30-40-х гг. XIX в. Вторая проза / Ответственные
редакторы А. Д. Михайлов, К. А. Чекалов. М., Наука, 2006. — 415 с

